2 son (1167), 2021 yil 22 Fevral EL SOG`LIGI - YURT BOYLIGI

SHIFOKOR SO`ZI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN



Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Àlisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

So'nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, uning o'lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, shoir tug'ilgan qutlug' 9 fevral sanasini har yili adabiyot va ma'rifat bayrami sifatida yuksak darajada nishonlash an'anasi qaror topdi. Ulug' so'z san'atkorining asarlari muntazam nashr etilib, Navoiyshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Samarqand davlat tibbiyot instituti katta faollar zalida, she'riyat mulkining sultoni, Mir Alisher Navoiyning 580 yillik tavallud ayyomi munosabati bilan 10-fevral kuni "O'zbek tili va adabiyoti, rus tili bilan" kafedrasi tomonidan o'tkaziladigan Navoiyxonlik badiy-adabiy kechasida institut professor-o'qituvchilari hamda sheriyatga orzumand talabalari faol ishtirok etishdi.

Tadbir avvalida yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor E.Tangirov hamda tibbiy pedagogika fakulteti dekani S. Mamarjabov so'zga chiqib, Mir Àlisher Navoiy qoldirgan boy ijodiy merosni o'rganish va targ'ib qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tdi.

Tadbirning badiiy qismida talabalar tomonidan shoirning "Navoiy va Guli monologi" hamda "Yodgor va Husayn Boyqaro" sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Bundan tashqari, mahorat bilan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar va raqslar barchaga a'lo kayfiyat bag'ishladi.

Tadbirni o'tkazishdan maqsad Navoiy dostonlarini chuqur o'rganish, ularda ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalarni yoshlar orasida keng targ'ib qilish, Navoiy asarlari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat hissini shakllantirishdan iborat.

NAVOIYNING "QUSH TILI" ASARI INSTITUT TALABALARI IJROSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 1-yo'nalishini hayotga tadbiq etish hamda she'riyat mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy tavalludini 580 yilligini keng nishonlash va mutafakkirning ijodiy asarlarini talaba-yoshlar o'rtasida targ'ib qilish maqsadida, joriy yilning 8 fevral kuni Samarqand viloyat musiqali drama teatrining katta sahnasida institut talabalari tomonidan "Lison ut-tayr" asari asosida "Qush tili" spektakli namoyish etildi. Teatrga keng jamoatchilik vakillari, institut professor- o'qituvchilari va talaba yoshlar tashrif buyurishdi.

Spektaklda bosh rollarini institut talabalari ijro etib barkamollik va hayot mazmuni kabi g'oyalar mujassam etilgan Navoiyning "Qush tili" abadiy asarini mahorat bilan ijro etdilar.

Institut rektori professor Jasur Alimjanovich Rizayev barcha talabalarga iste'dod va mahorat uchun minnatdorilik bildirib yangi-yangi ijodiy omadlar tiladi. Talabalar tomonidan mohirona ijro etilgan spektakl barchada katta taa'surot qoldirdi va talabalar minnatdor tomoshabinlar tomonidan uzoq olqishlarga sazovor bo'ldilar.

SamDTI matbuot xizmati

DENTAL IMPLANTOLOGIYA BO'YICHA MAHORAT DARSI O'TKAZILDI

2021 yil 2-fevral kuni SamDTI 1-son klinikasida stomatologiya kafedrasi o'qituvchisi Xasanov Ilxom Ikromovich tomonidan "Dental implantologiyada tashxis va rejalashtirish" mavzuida mahorat darsi o'tkazildi. Mashg'ulotda amaliyotchi-shifokorlar va stomatologya fakultetini talabalari ishtirok etdilar.

Darsda dental implantatsiyani turlari, turli bemorlarda uni qo'llash, tish implantatsiyasi operatsiyasini bajarishning asosiy nazariy jihatlari ko'rsatildi. Mashg'ulot davomida talabalarni o'zlariga bu amaliyotni bajarish uchun imkoniyat yaratildi.

Implantologiya bugungi kunda stomatologiyani eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, o'tkazilgan mahorat darsi o'qituvchilar va talabalar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

O'tkazilayotgan mahorat darslari va seminarlar stomatologiya fakultetini talabalariga zamonaviy mutaxassis va raqobatbardosh kadr bo'lib yetib chiqishlariga imkon yaratadi.

SamDTI matbuot xizmati

ВСТРЕЧА С УЧАЩИМИСЯ АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ САМГМИ

3 февраля ректор проф. Ж.А. Ризаев с целью ознакомления с учебно-воспитательным процессом посетил Академический лицей СамГМИ. Здесь же состоялась встреча ректора с учащимися и преподавателями академического лицея института.

На встрече с учащимися Жасур Алимжанович рассказал о проводимых преобразованиях в институте, создаваемых для учащихся возможностях и условиях для получения высшего медицинского образования, перспективах и будущих планах развития института. Ректор особо отметил место академического лицея в подготовке будущих студентов института, внедряемую тесную интеграцию учебного и научно-исследовательского процесса между образовательными учреждениями, в частности проведение регулярных лекций представителей профессорско-преподавательского состава института в лицее, что должно положительно сказаться на качественном росте знаний учащихся и поступаемости в СамГМИ. Особенно порадовало учащихся сообщение ректора о выделении 5 ректорских стипендий и создание нового, оборудованного по последнему слову техники, компьютерного класса.

Также на встрече ректор вручил почётные грамоты и дипломы победителям областного этапа предметной Олимпиады "Вместе в светлое будущее", проведённой среди учащихся средних и средне специальных образовательных учреждений. Ректор пригласил всех учащихся академического лицея института принять самое активное участие в запланированном соревновании по мини-футболу за Кубок ректора СамГМИ и в других проводимых мероприятиях. Также были заслушаны предложения и вопросы учащихся по улучшению организации учебно-воспитательного процесса в лицее.

Открытая и искренняя беседа ректора оставила самое неизгладимое впечатление среди учащихся академического лицея института.

Пресс служба СамМИ

YOSHLAR GIYOHVANDLIK VA OITSGA QARSHI!

Joriy yilning 1 fevral kunidan 1 mart kuniga qadar respublikamizda "Yoshlar orasida giyohvandlik vositalarini tarqatilishiga qarshi kurashish Oyligi" deb e'lon qilingan.

4 fevral kuni Samarqand Davlat tibbiyot institutida "Biz yoshlar giyohvandlik va OITSga qarshimiz" shiori ostida talaba yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Talaba-yoshlar bilan uchrashuvda Ichki ishlar viloyat boshqarmasi xodimlari, Samarqand viloyat "Imom-eshon Muhammad" jome masjidi imom xotibi va viloyat narkologik dispanseri vrachi Alisher Raximovlar ishtirok etdilar. Mehmonlar chiqishlari davomida narkotik moddalarni inson organizmiga ta'siri va uni iste'mol qilganda keltirib chiqadigan salbiy illatlar haqida ma'lumot berar ekan, giyohvandlikni butun insoniyatni tashvishga solayotgan eng katta muammolardan biri ekanligi, bu illat nafaqat, ma'lum bir davlat chegarasida, balki hududsiz, boshqacha qilib aytganda transmilliy jinoyatlardan biri ekanligi haqida aytib o'tdilar. Haqiqatan ham bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan giyovandlik va giyohvand moddalar bilan shug'ullangan ayrim yurtdoshlarimiz mo'may daromad topish ilinjida ushbu illat domida tushib qolayotganlari, buning oqibatida oilalarda turli noxushliklar yuzaga kelayotgani haqida fikr yuritildi.

Uchrashuv davomida ishtirokchilar uchun O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va Ichki ishlar vazirligi hamkorligida tayyorlargan "O'zini yo'qotganlar" va "Biz OITSga qarshimiz, Sizchi?" nomli hujjatli filmlar namoyish etildi.

Tadbir yakunida ma'ruzachilar tomonidan bildirilgan fikrlarni institutning barcha talaba-yoshlariga yetkazilishi haqida kelishildi.

SamDTI matbuot xizmati

ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA BO'YICHA MAHORAT DARSI

2021 yil 3-fevral kuni Samarqand Davlat tibbiyot instituti Toshkent Davlat stomatologiya instituti "Ortopedik stomatologiya kafedrasi" dotsenti, yetakchi stomatolog, Usmanov Farhod Komiljonovich tomonidan ma'ruza va mahorat darsi o'tkazildi.

Mashg'ulotda "Ortopedik davolashni rejalashtirish" mavzusi bo'yicha ortopedik davolanishni qanday qilib samarali rejalashtirishni, implantlarga protezlash uchun raqamli protokoldan foydalanish yuanslarini o'rganish va qisman va to'liq beparvolik bilan ortopedik tuzilmalar bilan ishlashni o'rganishni tushintirildi. Shuningdek amaliyotidan ko'plab holatlar mavjud bo'lib, ular turli vaziyatlarda ortopedik davolanishning nozik tomonlarini yaxshiroq tushunishga imkon berishi haqida fikr bildirdi.

Ma'ruzada ortoped va jarrohning jamoaviy yondashuvi, rejalashtirish tarafkashligini minimallashtirish, taassurotlarni olishning klinik protsedurasining nozikliklari va yuanslari (usullari va ularning natijaga ta'siri), materialshunoslik (taassurot materiallari, transfer turlari), implantatlarda protezlash uchun raqamli protokol (individual abutmentlar, gibrid va bir bo'lak frezalash) kabi dolzarb masalalarga bag'ishlandi. Ma'ruza so'ngida tishni qanday tiklash kerakligi va uni qanday omillarga etibor berish bo'yicha master-klass ham o'tkazildi.

Ishtirokchilar tomonidan berilgan barcha savollariga asoslangan javoblarni oldilar.

SamDTI matbuot xizmati

OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI RAISI BILAN UCHRASHUV



6 fevral kuni Samarqand davlat tibbiyot instituti Katta majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi raisi A.T. Yusupov bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda institutni professor-o'qituvchilari, doktorantlari va mustaqil izlanuvchilari ishtirok etdilar.

Uchrashuvni ochib berishda institut rektori professor Jasur Rizaev mazkur tashrif uchun Axmadbek Tadjievich Yusupovga minnatdorchilik bildirib respublikamizda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlarni ta'kidlab o'tdi. O'zini chiqishida OAK raisi oliy malakali kadrlarni tayyorlashdagi isloxotlar, oliy ta'limdan so'nggi ta'limda rejalashtirilayotgan yangiliklar, ilmiy daraja va unvonlar talablari attestatsiyasini yengillashtirish hamda tayyorlayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini ko'tarish bo'yicha tashabbuslar haqida batafsil ma'lumotlar berdi. Uchrashuv, ishtirokchilarning qizg'in savol-javoblari orqali, ochiq munozara shaklida olib borildi.

O'tkazilgan uchrashuvda viloyatimizni boshqa oliygohlarini vakillari ham ishtirok etdilar.

SamDTI matbuot xizmati

УЧАЩИЕСЯ АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ ПРИОБЩАЮТСЯ К ФУНДАМЕНТАЛЬНОЙ МЕДИЦИНЕ

Основу медицинской науки составляют такие предметы как анатомия человека, гистология, микробиология, вирусология, являющиеся фундаментом практической медицины.

С целью привлечения интереса к медицинской науке у будущих потенциальных студентов преподавательским составом кафедр "Анатомия", "Гистология", "Микробиология, вирусология и иммунология" Самаркандского государственного медицинского института начали регулярно проводиться ознакомительные занятия для учащихся 2 и 3 курсов академического лицея института.

В ходе проводимых занятий учащиеся знакомятся с историей и повседневной жизнью кафедр института, значением данных предметов в становлении будущих врачей, также для них проводятся лекции по вводным темам преподаваемых в институте дисциплин. Большой интерес среди учащихся в частности вызвал уникальный и не имеющий аналогов в регионе "анатомический стол", позволяющий в 3D формате изучать анатомию человека.

Проводимые занятия несомненно повышают практическую заинтересованность и мотивацию учащихся в получении знаний по фундаментальным дисциплинам.

INSTITUT TALABALARI DAVLAT STIPENDIYALARIGA SAZOVOR BO'LDILAR

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 1-fevraldagi buyrug'iga muvofiq Samarqand davlat tibbiyot institutining quyidagi talabalari:

stomatologiya fakulteti 5-bosqich talabasi **Qamariddinzoda Malikabonu Qamariddinovna** oliy o'quv yurtlar uchun joriy qilingan ***"Islom Karimov"*** nomidagi Davlat stipendiyasi sohibi sifatida tasdiqlandilar.

tibbiy pedagogika fakulteti 6-bosqich talabasi **Shopulotova Zarina Abdumo'min qizi** respublika oliygohlari talabalari ichidan ***"Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot"*** yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi;

pediatriya fakulteti 6-bosqich talabasi **Shamsieva Laylo Alisherovna** tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun joriy qilingan ***"Ibn Sino"*** nomidagi Davlat stipendiyasi sohibi;

Yuqori natijalar bilan talabalarimizni tabriklaymiz va omadlar tilab qolamiz!

SAMDTI TALABASI INNOVATSION ISHLANMASI "STARTUP-2020" TANLOVINI G'OLIBI BO'LDI

9-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligida "2020 yil uchun eng yaxshi 20 ta startup" tanlovi g'oliblari taqdirlandilar. Uchrashuvda tanlov g'oliblari, yosh olimlar hamda Yoshlar akademiyasining a'zolari ishtirok etdilar.

Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi tomonidan 2020 yilda 20 ta eng yaxshi startup loyihalarni amaliyotga joriy etish maqsadida e'lon qilingan "2020 yilga eng yaxshi 20 ta startup loyihalar" tanlovga jami 5191 ta loyiha kelib tushgan. Loyihalar maxsus Ishchi guruh tomonidan texnik va moliyaviy ekspertiza o'tkazilib, 20 ta startap loyihalari Ilmiy-texnik Kengashga ko'rib chiqib, xulosa berish uchun taqdim etilgan. Startup loyihalarni baholash bo'yicha Ilmiy-texnik kengashning xulosasiga ko'ra g'oliblar tanlab olindi.

Samarqand davlat tibbiyot instituti Stomatologiya fakulteti 5-kurs talabasi Hoshimbek Boboqandovning "Yangi tarkibga ega bo'lgan stomatologiyada ishlatiladigan mikroimplantni O'zbekiston sharoitida ishlab chiqarish" mavzuidagi innovatsion ishlanmasi "2020 yil uchun eng yaxshi 20 ta startup" tanlovida g'olib bo'ldi. Unga tegishli sertifikat va Yoshlar Akademiyasi a'zolik guvohnomasi topshirildi.

Institut talabalasi Boboqandov Hoshimbekni tabriklaymiz va yangi ijodiy zafarlar tilaymiz!

BITIRUVCHILAR BILAN UCHRASHUV O'TKAZILDI

Samarqand Davlat tibbiyot instituti davolash, pediatriya va tibbiy pedagogika fakultetlari bitiruvchi kurs talabalari hamda klinik ordinator va magistrlar bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda Jizzax viloyati Do'stlik tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'i A.E.Inyaminov, tuman shifoxonasi shifokori B.Abjalov, tumandagi Abu Ali ibn Sino jamoat salomatligi texnikumi direktori A.A. Abdufattoev, G'allaorol tibbiyot kolleji direktor o'rinbosari M.M. Usmonov hamda institut rektorati vakillari qatnashdilar.

Bitiruvchilar bilan uchrashuvni tibbiy pedagogika fakulteti dekani S.E. Mamaradjabov kirish so'zi bilan ochib berdi. Jizzax viloyatidan tashrif buyurgan mutasaddilar institut bitiruvchilariga o'zlarini tibbiyot va o'quv muassasalaridagi vakant o'rinlar, yosh kadrlar uchun yaratiladigan shart-sharoit va imtiyozlar haqida batafsil gapirib berdilar.

Uchrashuv davomida mehmonlar bitiruvchilardan berilgan savollarga hozirlik bilan javob berib ularni mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlariga ishga taklif qildilar.

SamDTI matbuot xizmati

INSTITUTDA "REKTOR KUBOGI" UCHUN SPORT MUSOBAQALARI O'TKAZILDI

2021 yil 10-17 fevral kunlari institut Sport klubi va Yoshlar Ittifoqi tashabbusi bilan "Sog'lom turmush - buyuk kelajak" shiori ostida "Rektor kubogi" sport musobaqasiga start berildi. Musobaqalar SamDTI akademik litsey sport zalida bo'lib o'tmoqda.

Musobaqaga SamDTI rektori Jasur Alimjanovich Rizaev ochib berib yoshlarga omad tiladi hamda kelgusida "Futboll" sport turi bo'yicha ham "Rektor kubogi" uchun sport musobaqalari bo'lishini takidladilar.

10-13 fevral kunlari Voleybol bo'yicha 10 ta fakultetdan 30 ta jamaolar qatnashmoqda. 15-16 fevral kunlari shaxmat sport turlari bo'yicha institut barcha fakultet talaba yoshlari o'z jamoalari bilan ishtirok etadilar.

Har bir sport turi bo'yicha 1-2-3 o'rinlarni egallagan musobaqa ishtirokchilari inistitut tomonidan esdalik sovg'alar va diplomlar bilan taqdirlandi

SamDTI matbuot xizmati

ПРЕЗЕНТАЦИЯ СБОРНИКОВ СТИХОВ СТУДЕНТА СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО ФАКУЛЬТЕТА

12 февраля в большом зале собраний Самаркандского государственного медицинского института прошла встреча со студентами стоматологического факультета. На встрече приняли участие представители деканата факультета и студенты факультета института.

Декан факультета PhD А.А. Ахмедов отметил уделяемое творческому саморазвитию студентов особое внимание и создаваемые для этого условия в институте. Не случайно развитие культуры чтения является одним из 5 особо важных инициатив, выдвинутых Президентом нашей страны, на нашем факультета учатся много одарённых и талантливых студентов, и наша задача вовремя заметить и поддерживать наши таланты, отметил Алишер Астанович Ахмедов.

На встрече состоялась презентация сборников стихов студента стоматологического факультета Низом Садриева "Мне это нравится", "Страждущие сердца", "Исход", "Нежность матери". Продекламированные задушевные стихи о любви к Родине, дружбе, честности и справедливости, материнской любви оставили большое впечатление участников встречи. На встрече, проводимой в дни празднования юбилеев великих поэтов-лириков Алишера Навои и Захириддина Мухаммад Бабура, стихи великих поэтов на разных языках рассказали и другие студенты факультета.

По итогам было достигнута договорённость о регулярном проведении подобных встреч с творческими студентами факультета.

Пресс служба СамМИ

REKTOR VA INSTITUT IQTIDORLI TALABA-YOSHLARI UCHRASHUVI

15 fevral kuni Samarqand davlat tibbiyot instituti rektori professor J.A. Rizaev institutni faol talaba-yoshlari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda institutda olib borilayotgan ishlar, talaba-yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlarga to'xtalib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar xususida ham takliflar berildi. Jumladan, institutda tahsil olayotgan talabalarga turli yo'nalishlarda master klass o'tkazish, qanday to'garaklar ochish kerakligi, talaba yoshlarning ilimiy ishlar bilan shug'illanishlariga ko'proq vaqt ajratish masalalari taklif qilindi. O'z kuchiga ishongan, ilmiy ishlar bilan shug'ullanishda moliyaviy qiyinchilikga uchrab o'zini ishlarini to'xtab qolgan yoshlarga yordam qilish kerak deb ta'kidladilar Jasur Alimjanovich. Institut rektori shuningdek hozirgi kundagi dolzarb muammolar, xususan onkologik kasalliklar oldini olish, sog'lom turmush tarzi, yosh bolalar tishlarini to'g'ri parvarish qilish va boshqa bir qancha sohalarda videoroliklar tayyorlab, ularni aholiga yetkazish va ularni sog'lom turmush tarziga jalb etish taklifini ham berdilar.

Uchrashuvda institut "Yosh olimlar ilmiy kengashi"ni raisi N.N.Shavazi ham chiqish qilib talabalarni ilmiy ishlarda faol bo'lishga chaqirdilar.

Ochiq va samimiy muloqot davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarini va takliflarini ham bildirib o'tdilar.

SamDTI matbuot xizmati

YONG'IN XAVFSIZLIGI BO'YICHA AMALIY SEMINAR

2021 yil 16 fevral kuni Samarqand Davlat tibbiyot institutini talabalar turar joylarida yong'in xavfsizligi va favqulotda vaziyatlar boshqarmalari hamda Qizil yarim oy jamiyati bilan hamkorlikda kuz-qish mavsumida yong'in xavfsizligiga bag'ishlangan talabalar bilan uchrashuv o'tkazildi.

O'qituvchilar va gurux murabbiylari yotoqxonalar va ijarada hamda yaqin qarindoshlarnikida turayotgan talabalar huzuriga borib, ularning yashash sharoitlari bilan tanishib, yong'in xavfsizligi, is gazidan zaharlanishning oqibatlari va xavfsizlik masalalari haqida suhbatlar doimiy ravishda o'tkazib kelmoqda.

Uchrashuvda Samarqand shahar yong'in xavfsizligiga qarshi kurashish xodimlari chiqish qilib viloyatda va Samarqand shahrida yong'inga qarshi amalga oshirilayotgan choralar, gaz va elektr uskunalar bilan foydalanishda ehtiyotkorlik, ularni doimiy ravishda tegishli ko'rikdan o'tkazish zarurati, faqat tegishli davlat organlari tomonidan ruxsat etilgan uskuna va asboblardan foydalanish xaqida batafsil aytib o'tildi. Uchrashuv davomida yong'in va shunga o'xshash boshqa favquloddagi vaziyatlar sodir bo'lganda qilinishi lozim bo'lgan harakatlar ko'rgazmasi, uni o'tkazish jarayonida amaliyotda qanday o't o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish kerakligi, birlamchi yordam ko'rsatish kabi misollar amaliyoti ko'rsatib o'tildi.

Seminar-uchrashuvlarning bu kabi interfaol usulda tashkil etilishi yoshlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olishga doir bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

SamDTI matbuot xizmati

SamDTI quyidagi lavozimlariga tanlov e'lon qiladi

PEDIATRIYA FAKULTETI

Nevralogiya kafedrasi neyroxirurgiya kursi bilan, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

Nurli diagnostikasi va terapiya kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

2- son pediatriya va neonatologiya kursi bilan, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

Katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

3-pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

Travmatologiya va ortopediya kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Xirurgik kasalliklar kafedrasi, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

TIBBIY PEDAGOGIKA FAKULTETI

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.

Psixiatriya, tibbiy psixologiya va narkologiya kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 2 o'rin

Pedagogika psixologiya kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

O'zbek tili adabiyoti va rus tili bilan birga kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.

Tillar kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 3 o'rin.

DAVOLASH ISHI FAKULTETI

2-son xirurgik kasalliklar kafedrasi urologiya kursi bilan, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

4-son ichki kasalliklar kafedrasi, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

Otorinolaringologiya kafedrasi, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

2-son stomatologiya kafedrasi, asistent lavozimiga - 1 o'rin.

DIPLOMDAN KEYINGI TALIM FAKULTETI

Akusherlik va ginekologiya, neontologiya kursi bilan, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin.

Pedagogika psixologiya kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin.

Umumiy amaliyot oilaviy meditsina kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin.

Stomatologiya kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin.

Bolalar xirurgiyasi va anesteziologiya reanimatologiya kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Ichki kasalliklar kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Klinik laborator-diagnostika kursi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Xirurgiya, endoskopiya va anesteziologiya reanimatologiya kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

Pediatriya va umumiy amaliyot kafedrasi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.

Ijtimoiy salomatlik va sog'likni saqlash boshqaruvi kursi, asisstent o`qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo`lgan shaxslar qatnashishi mumkin

**Asisstent o`qituvchi** lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga, tegishli mutaxassislik bo`yicha oliy ma'lumotga ega bo`lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri A.Temur ko'chasi, 18 uy.

Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti Tibbiy pedagogika fakulteti

OCHIQ MA'RUZA

Samarqand davlat tibbiyot instituti Tibbiy pedagogika fakulteti "**3-ichki kasalliklar va endokrinologiya kursi bilan"** kafedrasida ***2021 yil 29 mart soat 11:40*** da kafedraning majlislar zalida davolash fakultetining **416-420** guruh studentlariga **t. f. d., prof G.Z. SHodikulova**ning *"Miokardit. Perikardit. Kasallikning etiologiyasi, tasnifi, klinikasi. Tekshirish uslublarini o'rganish. Davolash prinsipi va profilaktikasi"* mavzusida ochiq ma'ruzasi bo'lib o'tadi.

Barcha tinglovchilar, magistrlar va klinik ordinatorlar taklif etiladi

SAMARQAND - 2021

Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti Pediatriya fakulteti

OCHIQ MA'RUZA

SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida **2021-yil 9-mart** kuni fakultet pediatriya fanidan soat **11:40** da Pediatriya fakulteti **306-310** guruh talabalari uchun ochiq ma`ruza bo`lib o`tadi.

Mavzu: Erta yoshdagi bolalarda raxit kasalligi.

Ma'ruzachi: SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasining dotsenti, t.f.d. Sharipova O.A.

Manzil: SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi ma'ruza zali

Taklif qilinganlar: Pediatriya fakulteti 306-310 guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

SAMARQAND - 2021

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:
G`.U. LUTFULLAEV, S.A. KARABAEV, S.E. MAMARADJABOV, A.A. AXMEDOV, J.F. KADIROV.

SHIFOKOR SO`ZI

Nashr uchun mas'ul:
N. MUSURMANOV

Operator va sahifalovchi:
A.KELDIYAROV

Fotomuxbir:
O. AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro`yxatga olingan.
INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to`liq rangli shaklda chop etiladi va ***bepul tarqatiladi***

MANZIL: ***Samarqand shahri, Amir Temur ko`chasi 18-uy.***
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.
Nashrga ruxsat berildi: 2021 yil, 22 fevral. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: --